



SHARQ VA G'ARB ADABIYOTINI TARIXIY-QIYOSIY O'RGANISH MASALALARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

ISSUES OF COMPARATIVE HISTORICAL
STUDIES IN EAST AND WEST LITERATURE

INTERNATIONAL CONFERENCE

24-25 MAY 2024-YIL



TSUOS.UZ



TSUOS



TSUOS.UZ



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**SHARQ VA GʻARB ADABIYOTINI TARIXIY-QIYOSIY
OʻRGANISH MASALALARI**

**ВОПРОСЫ СРАВНИТЕЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ
ЛИТЕРАТУР ВОСТОКА И ЗАПАДА**

**ISSUES OF CO'MPARATIVE HISTO'RICAL STUDIES IN EAST
AND WEST LITERATURE**

Toshkent 2024

3. Rasulova, U. Besamar umr manzaralari. Hozirgi adabiy jarayon masalalari [Matn]. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2022. – 200bet.
4. WordPress.com. “House Taken Over” (“Casa Tomada”) by Julio Cortazar. Translated by Paul Blackburn. – 3 p.
5. www.ziyouz.com
6. Umida, R. (2024). The relevance of rhythm in prose fiction. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
7. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern StoryWriting. *Spast Reports*, 1(1).

SELIM ILERI VA NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA RUHIY KECHINMA TASVIRI

DILNOZA ABDULXAYEVA

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti
Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy turk adabiyotining serqirra ijodkori Selim Ileri va o‘zbek hikoyachiligida o‘ziga xos uslubi bilan ajralib turuvchi Nazar Eshonqul hikoyalarida ruhiy kechinma tasviri haqida so‘z yuritiladi. Selim Ileri o‘z hikoyalarida shaxsning ruhiy iztiroblari va kechinmalarini mohirona tasvirlaydi. Ko‘plab hikoyalari bilan o‘zbek kitobxonlari mehrini qozongan Nazar Eshonqulning hikoyalarida shaxsning murakkab ichki olami, ruhiy holati aks etadi. Badiiy asarning kitobxonni o‘ziga jalb qiluvchi va qalbidan joy olishini ta‘minlovchi eng muhim xususiyatlaridan biri, bu unda inson ruhiy olamini butun murakkabliklari, ziddiyatlari bilan sehrli bir tarzda aks ettirishdir. Maqolada Selim Ilerining “Shanba yolg‘izligi” (“Cumartesi Yalnızlığı”), Nazar Eshonqulning “Ochilmagan eshik” nomli hikoyalari tahlilga tortilgan bo‘lib, hikoyalarda qahramon his-tuyg‘ularini, ichki olamini, ruhiy holatini tasvirlashda aniqlangan mushtarakliklar xususiga dalillar orqali to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: hikoya, ruhiyat, xayol, ruhiy kechinma, yolg‘izlik, retrospektiv syujet.

Abstract: This article talks about the depiction of spiritual experience in the stories of Selim Ileri, a great creator of modern Turkish literature, and Nazar Eshanqul, who is distinguished by his unique style in Uzbek storytelling. In his stories, Selim Ileri skillfully

describes the mental suffering and experiences of a person. The stories of Nazar Eshanqul, who won the love of Uzbek readers with many stories, reflect the complex inner world and mental state of a person. After all, one of the most important features of a work of art that attracts the reader and provides a place in his heart is the magical reflection of the human psyche with all its complexities and contradictions. In the article, Selim Ileri's stories "Saturday loneliness" ("Cumartesi Yalnızlığı") and Nazar Eshanqul's "An unopened door" ("Ochilmangan eshik") were analyzed, and the commonalities identified in the descriptions of the hero's emotions, inner world, and mental state in the stories were analyzed.

Key words: story, psyche, dream, spiritual experience, loneliness, retrospective plot.

Kirish.

Inson – adabiyotning tasvir predmeti ekan, insonning ruhiyatisiz uni yaxlit, bir butun holatda to'liq tasavvur qilish mumkin emas. Demak, har qanday badiiy asarda, u qachon va qaysi janr, metodda yaratilgan bo'lmasin, inson psixologiyasi u yoki bu tarzda aks etishi tabiiydir. [11, b.7] Taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov fikriga ko'ra: "Hikoyada yozuvchi o'z nasihatini, didaktik g'oyasini badiiy to'qimaga singdirishning yagona yo'li, bu xarakterlarni psixologik jihatdan chuqur dalillash orqali, tabiiylik va hayotiylikka erishishdir." [6, b.16] Zero, mashhur hikoyanavis Abdulla Qahhor ta'kidlaganidek: "Psixologizm yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir." [6, b.277]

Shuningdek, adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev shaxsning ruhiy holatini tasvirlash haqida shunday deydi: "Badiiy ijod muayyan odam ko'nglini tadqiq etishi, uni o'zgalar his etadigan darajada tasvirlay bilishi bilan diqqatga molikdir. Inson tuyg'ulari o'ta murakkab, g'oyat nozik bo'lganligi uchun ham uni haqqoniy va ta'sirli tasvirlash qiyin. Chunki insonning kechinmayu hislari cheksiz bo'lgani holda ularni ifodalash imkoniyati chegaralangandir. Ijodkorning talanti darajasi inson qalbi iqlimlarini nechoglik to'liq tadqiq eta bilish mahorati bilan o'lchanadi odamning ko'ngliga esa faqat samimiyat deb ataluvchi torgina so'qmoq orqali kirib borish mumkin." [12, b.207] O'zbek hikoyachiligida ham turk hikoyachiligida ham jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, hayot tashvishlari, turli-tuman ziddiyatlar

qarshisidagi shaxsning qalb kechinmalarini, ruhiy tovlanishlarini teran ifoda etish keng o‘rin olmoqda.

Asosiy qism. Qahramon yaratish, uning botini va zohirini tasvirlab berish yozuvchidan yuksak mahorat bilan birgalikda hayotni, insonlarni kuzatish, ularni idrok etish va tushinish qobiliyatini talab qiladi. Turk adabiyotiga 1960-yillar so‘ngida o‘z hikoyalari bilan kirib kelgan Selim Ileri ham shunday yozuvchilardan biri sanaladi. Adib yaqin ellik yillik adabiy faoliyati davomida adabiyotning turli janrlarida ko‘plab asarlar yozgan bo‘lib, uning o‘ndan ortiq hikoya to‘plamlari mavjud. Selim Ileri turk hikoyachiligi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shgan yozuvchilardan biri sanaladi. [5, b.161] U o‘z hikoyalarida shaxsning ichki olamini, unda sodir bo‘layotgan g‘alayonlarni ustalik bilan tasvirlab beradi. Adib hikoyalarining qahramonlari 60-yillar boshida Turkiyada sodir bo‘lgan harbiy to‘ntarilish va uning oqibatlari natijasida yuzaga kelgan murakkab bir davrda yashagan turk xalqining turli tabaqa vakillaridir. Shuningdek, adib hikoyalarida ortga qaytib, o‘tmish kunlarini xotirlash, ularni hikoya qilib berish ko‘zga tashlanadi.

Selim Ileri hikoyalarida jamiyatdagi o‘zgarishlar qarshisida yolg‘izlanib qolgan burjuva vakillari, yaqinlari e‘tiboridan mahrum qolgan, maishiy qiyinchiliklar girdobida ertangi kun uchun kurashayotgan, baxtli hayot kechirishga intilayotgan ayollar va qizlar, onasi va buvisining ba‘zi odob qoidalariga zid harakatlaridan esankirab qolgan bolalar, farovon hayot istagida bosh ko‘tarib chiqqan yoshlarni aks ettiradi. Ularning ichki olamini shunday tasvirlaydiki, kitobxon qahramonning turli vaziyatlardagi quvonch-u shodliklarini, g‘am-anduh va qayg‘ularini his etadi, ularga oshno bo‘ladi.

Nazar Eshonqul 1962-yil 15-iyunda Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Tersota qishlog‘ida dunyoga kelgan. 1986-yilda ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomladi. 1988-yilda dastlabki asari — “Urush odamlari” nashrdan chiqadi. Shundan so‘ng yozuvchining “Momo qo‘shiq” (1989), “Maymun yetaklagan odam” (2001), “Shamolni tutib bo‘lmaydi” (2004) kabi asarlari nashr etiladi. Shuningdek, yozuvchi tarjima faoliyati bilan ham shug‘ullanib, F.K.Anittining “Hikoyalar va qissalar”ini, A.Kamyuning “Esselar”ini, Chexovning “Boloxonali uy” hikoyasini o‘zbek tiliga tarjima qiladi.[13]

“Nazar Eshonqul shaxsida, tabiatida insonning ichki olamini, ruhiy iztiroblarini, kechinmalarini, inson taqdiridagi fojeaviy holatlarni anglay olish va uni kitobxonga yetkazib berish qobiliyati juda ham kuchli.” [7,

b.537] Adib inson ruhiy olamini yangicha badiiy talqin qilish orqali kitobxonda kuchli qiziqish hissi uygʻotadi. Majoziy, koʻchma maʼnoli tasvirlar taʼrif-u tavsiflarga tez-tez murojaat etilib, ularning ustuvorligi taʼminlanadi. Eng muhimi, tasvirlardagi majozlar, koʻchma maʼnoli vositalar qahramonlarning betakror ruhiy dunyosini yoritishga xizmat qiladi. “Nazar Eshonqul hikoyalarida dunyoni, insonni qayta nazardan oʻtkazar ekan, shaxs ehtiyojlari va manfaatlarini birinchi oʻringa qoʻyadi. Har qanday qadriyat shaxs manfaati nutqayi nazaridan baholanadi. Bunday hollarda insonning, shaxsning eng nozik, eng bokira kechinmalari ham tarixiy hodisa ahamiyatiga teng koʻrinadi.” [5, b.154]

Qahramon ruhiy holatini, ichki olamini, his-tuygʻu va kechinmalarini tasvirlash uchun yozuvchilar tomonidan turli badiiy tasvir vositalari, jumladan: ichki monolog, ong oqimi, psixologik portret, nutqiy xarakteristika, takroriy soʻzlar, pauza vositalari, gallyutsinatsiya, tush, xayol, oʻzi bilan suhbat kabilardan foydalaniladi.[8, b.49] Selim Ileri va Nazar Eshonqul ijodida ham personaj ruhiy holatini tasvirlashda badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi mushtarakliklarni kuzatish mumkin. **Natijalar va muhokama.**

Selim Ilerining “Shanba yolgʻizligi” (“Cumartesi Yalnızlığı”) hikoyasi bosh qahramoni – oddiygina fabrika ishchisi boʻlgan qiz. Qizining haftalik maosh olishini kutib oʻtiradigan, oilani boqish, moddiy jihatdan taʼminlash haqida umuman oʻylab ham koʻrmaydigan, ichkilikka ruju qoʻygan ota; oʻz qizi taqdiriga befarq ona; oʻqish haqida qaygʻurmaydigan, oʻyin kulguga berilib ketayotgan singil va maktab yoshidagi ukadan iborat oilaning butun yuki birgina shu ishchi qizning zimmasiga yuklatilgan, ammo qiz endi oila qurib baxtli hayot kechirishni xohlaydi. Afsuski, hayot shartlari, moddiy qiyinchiliklar, ijara uylarning narxi yuqoriligi qizning bu istaklarini amalga oshirishga monelik qiladi. Bunday vaziyat qarshisida qizning sevgan yigiti uning orzusini amalga oshirish uchun yetarli mablagʻni topib kelish maqsadida qizni tashlab ketadi.

S.Ileri mazkur hikoyada turmush tashvishlariga toʻla hayotdan charchagan, ortiq sevgan yigiti, payvandchi bilan oila qurib oʻz uylarida yashash istagida boʻlgan ishchi qizning qalb kechinmalarini, uning orzu istaklarini mahorat bilan qalamga oladi. Adib qahramonning ichki olami bokira tuygʻularini quyidagicha tasvirlaydi:

“Baland bo‘yli, qizil labli sevgilim hoxlasang sen uchun hali dunyoga kelmagan bolalarning barchasini dunyoga keltirardim, sendan dunyoga keltirardim.”

(“Rüzgâr boylum, al dudaklîm isteseydin doğmamış çocukların hepsini senin için doğururdum, senden doğururdum.”) [2, b.76]

Nazar Eshonqul “Ochilmagan eshik” hikoyasi orqali turmush o‘rtog‘ining xiyonatiga uchragan, uning e‘tiboridan chetda qolgan, befarzandlik azobida qovrulayotgan yoshgina kelinchak hayotini aks ettiradi. Yozuvchi hikoyada kelinchakning shuuridagi ma‘yus va mahzun, dardchil kechinmalarni ta’sirchan tarzda kitobxonga yetkazadi. Ayol qalbining tub-tubiga kirib borib, uning eng dardchil g‘alayonlarini o‘quvchiga ham anglatishga urinadi. Xususan, kelinchakning ruhiy kechinmalarini hayot va xayol bilan bevosita uyg‘unlikda tasvirlaydi: *“...qizlik paytlari xayolida yaratgan oppoq ertaksimon dunyoga borib qolishni, u yerda malikalarday baxtli va osoyishta kun kechirishni, bir-biridan go‘zal, mard, pahlavon shaxzodalar tug‘ib berishni orzu qilardi”* [1, b.171]

Hikoyalarda qahramon xayoli va orzulari tasviriga alohida urg‘u beriladi. “Har bir yozuvchi qahramon xayoli vositasida uning dunyoqarashi, ruhiy olami, turmush tarzini yoritadi. Qahramonning ichki olami, bokira tuyg‘ulari naqadar samimiy va pokizaligini tasvirlaydi..”[3, b.35] Sharq ayoli baxtining asosini oila va farzand tashkil etishini va shundagina ayol baxtining to‘kis bo‘lishini har iki yozuvchi qahramonlari xayollaridagi o‘xshashlikda ko‘rish mumkin.

Shuningdek, har ikki hikoyada qahramon hayotning eng achchiq azoblariga duchor bo‘lgan, ruhan ezilgan, yolg‘izlanib qolgan holatda bo‘lib, ularning bu vaziyatdagi ruhiy kechinmalari aks ettiriladi. Masalan,

Nazar Eshonqulning “Ochilmagan eshik” hikoyasida kelinchak yolg‘izligi shu tarzda bayon qilinadi:

“Bu nimasi? – dedi u yana. – Nima bu? Xuddi ko‘cha ayollariga o‘xshab boyanib olibsan! Kelinchak yuziga tarsaki tortib yuborganday bir zum serrayib, eriga cho‘chinqirab tikilib turdi-da, yugurib tashqariga chiqib ketdi: so‘ngra tovoqda turgan suvga apil-tapil yuzini chaydi, so‘rining bir chetiga o‘tirib, chorpoya tegrasiga suyanganicha piqqillab yig‘lab yubordi. (...) Sokin uhlab yotgan uylar orasida o‘zining yolg‘iz ekanligini daf‘atan his qildi.” [1, b.175]

N.Eshonqul kelinchak ruhiyatidagi tushkunlikni, ruhiy yolg'izlik holatini dunyodan ajratib emas, balki dunyo ichida tasvirlaydi. O'sha shaharlik ayolda o'zida bo'lmagan nimasi erini unga jalb qilganligini o'ylab ich-etini yeydi, o'zini o'sha ayolga qiyoslab ruhan azob chekadi, natijada yolg'izlik domiga tushib qolgan kelinchak o'z joniga qasd qiladi. Hikoyada inson uchun oila, mehrning qadri beqiyosligi, yolg'izlik esa har qanday irodasi kuchli insonni ham sindirishi ko'rsatiladi.

Selim Ilerining "Shanba yolg'izligi" ("Cumartesi Yalnızlığı") hikoyasida hali oila qurmagan va yolg'izlik azobini boshdan o'tkazayotgan qahramon esa sevgilisi bilan baxtiyor oila qurish sari intiladi. Biroq ishchi qiz sevgilisi tark etishi natijasida hayotida shanba kunlarigina his etadigan baxtiyorlik hissidan ham mahrum qolib, yolg'izlik domiga tushib qolgandagi ruhiy holati shu tarzda tasvirlanadi:

"U yerda, u marmar toshlar uyumi orasida meni bunday yolg'iz, bunday qayg'uga botgan holda tashlab ketish erkaklik sha'niga loyiqmidi? – (...) Qiz payvandchining qo'lidan tutardi. Payvandchi qo'lini tortib olardi. Ichidan to'lib yig'layotgandi qiz."

("Orada, o mermer taş yığını arasında beni böyle yapayalnız, böyle kaygılara düşmüş bırakmak erkeklığe sığar mıydı? - (...) Kız koluna giriyordu Kaynakçı'nın. Kolunu indiri indiriveriyordu Kaynakçı. İçi sıra bir şeyler ağlıyordu Kız'ın.") [2, b.76]

"Qulog'im ko'cha eshikda edi, uning ochilishini kutayotgandim, sening kelishingni kutayotgandim. Men yolg'iz edim, shanba edi. Shanba mening yagona baxtiyor kunim edi, yomon o'tishi mumkin emasdi qalbm oshinosi, sensiz o'tishi mumkin emas edi. –"

("Kulağım sokak kapısında ydı, açılmasını bekliyordum. Yalnızdım, cumartesiydi. Cumartesi tek sevinç günümdü, kötü geçemezdi dost yüreğim, sensiz olamazdım. –") [2, b.78]

Shuningdek, ijodkorlar har ikki hikoyada retrospektiv syujetdan mohirona foydalangan holda, qahramon ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, voqealar rivoji va mazmunini ochishga, psixologik tahlilni kuchaytirishga erishganliklarini kuzatish mumkin. Retrospektiv syujet – (o'tmishga qaytish) – bunda voqealar bir boshdan, birin-ketin hikoya qilinmaydi, balki voqealar ma'lum joyidan to'xtatib qo'yilib, uning o'tmishiga, oldingi voqealarga murojaat qilinadi. Ba'zi asarlar umuman ana shunday orqaga qaytishga asoslansa, ayrim asarlarda vaqti-vaqti bilan voqealar va qahramonlarni o'tmishiga qaytib turiladi. [9,

b.52] “Retrospektiv syujet endilikda personajning oldingi hayotini berish vositasidan ularning ichki dunyosini tahlil qilish vositasiga aylanib qoldi.” [10, b.323] Nazar Eshonqulning “Ochilmagan eshik” hikoyasida kelinchak gohida o‘gay onasi bilan bog‘liq xotiralarini esga oladi:

“U qarg‘ishlardan, kattalarning sassiq va qo‘lansa dunyosidan qochib, o‘zini nima himoya qilsa, o‘sha yerga berkinardi. (...) Ba‘zan bola qalbi bilan u o‘gay onasining ertaklarda aytilgandek unchalik johil emasligini, erkalashni bilmagani tufayli ham erkalash, ham yetimligini bildirmaslik uchun o‘zini qarg‘aganini anglab qolardi. U bolalik dunyosidan kattalar dunyosiga sakrab o‘tgan edi.” [1, b.174]

“Shanba yolg‘izligi” (“Cumartesi Yalnızlığı”) hikoyasida adibning ishchi qizning sevgilisi bilan bog‘liq xotiralarini hikoya voqealari rivoji bilan o‘rin almashtirib bayon qilish orqali ham hikoya mazmunini ochishda ham qahramon ruhiy holatini tasvirlashda foydalanganligi kuzatiladi:

“Shanbalari fabrikaga ovqat olib bormasdi. Bir bo‘lishi bilan navbatga turar haftalik maoshini olardi. Keyin qushday uchib avtobusga yugurardi. Teri hidi, u kiyimlarga singib ketgan badbo‘y teri hidi ortda qolardi. (...) Ko‘z yoshi shishalariga boqardi Qiz. “Gapirmasang yig‘layman,” degandi Yigitga. U yana toshdek qotib turardi. Qadimda odamlar ko‘z yoshi shishalarida saqlashardi qayg‘ularini. Vitrinalarni sindirib bir shishani olishni, to‘yib-to‘yib yig‘lashni xohlagardi Qiz...”

(“Cumartesileri yemek götürmezdi fabrikaya. Bir oldu mu sıraya girer, haftalığını alır. Sonra uçarcasına otobüse koşulur. Deri kokusu, o üstlere sinmiş pis deri kokusu birden geride kalır. (...) Gözyaşı şişelerine bakmıştı Kız. “Konuşmazsam ağlarım” demişti Erkek’e. O gene taş gibi durmuştu. Vaktiyle insanlar bu gözyaşı şişelerinde saklıyorlardı acılarını. Vitrinleri kırıp bir şişeyi almak, ağlamak ağlamak istemişti Kız...”) [2, b.77]

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Selim Ileri va Nazar Eshonqul hikoyalarida oila bag‘rida bo‘la turib yolg‘izlik domiga tushib qolgan, baxtsiz muhabbat qarshisidagi ayolning ruhiy kechinmalari, ichki olami, his-tuyg‘ulari psixologik talqin qilinganligini ko‘rish mumkin. Har ikki adibning hikoyalarida qahramon ruhiyatining eng nozik qirralarigacha batafsil, chuqur ochib berishda, ichki olamini musavvirdek o‘quvchi ko‘z oldida namoyon qilishda badiiy tasvir

vositalaridan: xayol, orzu-istak, retrospektiv syujet va psixologik tahlil vositalaridan keng foydalanilganligi aniqlandi. Kelinchakning va ishchi qizning osmon kabi beg‘ubor xayollari bor. Qahramon-ayolning xoh u o‘zbek, xoh u turk bo‘lsin qalbining tub-tubiga yashiringan, hech kimga, hech qachon aytmaydigan xayollari, tasvirlashga qalam ham ojizlik qiladigan ruhiy kechinmalari hikoyalardagi badiiy salmoqdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Hikoyalardagi retrospektiv syujet vositasi orqali voqealar rivoji va mazmunini ochib berilish bilan birgalikda qahramon ruhiyatini, dunyoqarashini, bunday holatga tushib qolish sabablari tasvirlanadi. Shu jihatdan ikkala yozuvchining hikoyalarida o‘zaro mushtaraklik borligi ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эшонқул Н. Сайланма I (Ҳикоялар). – Тошкент: «Akademnashr», 2022. – 512 б.
2. İleri S. Otuz Yılın Bütün Hikâyeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – 766 s.
3. Kenjayeva P. Istiqlol davri o‘zbek nasrida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari. –Toshkent: TDSHU, 2020. –127 b.
4. Necatigil B. Edebiyatımızda İsimler Sözlüğü.– İstanbul: Varlık yayınları. 1991. – 384 s.
5. Orifova N. Nazar Eshonqulning modern asarlari tahlili //«Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari. -B.151-154.
6. Қаҳҳор А. Асарлар 6 томлик. Т. I. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1971. – 416 б.
7. Qosimov M. Istiqlol yillarida hikoyachilik taraqqiyoti (*Nazar Eshonqul ijodi misolida*) //Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. 2022. 12. –B.536.
8. Қуронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 402 б.
9. Раҳимов З. Романда сюжет қурилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, №6, 2002. -Б.52-57.
10. Сақимов А. Ўзбек романи поэтикаси. Фил.ф.д., дисс. Т., 1993. -323 б.
11. Умуров Ҳ. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. -Т.: “Фан”, 1983. -148 б.

12. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2006. -546 б.
13. Ziyo uz.com

**КУЛЬТУРНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ
ВОСТОК-ЗАПАД В РОМАНЕ КИРАН ДЕСАИ
«НАСЛЕДСТВО РАЗОРЕННЫХ»**

УРУМОВА ТОГЖАН

Магистрант КазНУ им. аль-Фараби

КОКЕЕВА Д.М. к.ф.н., доцент

ИСКАКОВА З.Е., ст.преподаватель

КазНУ им. аль-Фараби

Республика Казахстан

Аннотация: В статье анализируются проблемы культурной идентичности в контексте *восток-запад*. Эта часть самоидентификации человека определяется принадлежностью к какой-либо социальной группе, обладающей собственной культурной идентичностью. В индийской литературе это тема больше всего поднимается в литературе диаспоры, самой необычной чертой которой является принадлежность ее авторов одновременно и к Западу, и к Востоку. Вот почему у них зоркий глаз, способный одинаково исследовать обе стороны. Киран Десаи, одна из самых известных писательниц литературы индийской диаспоры, в своем произведении «Наследие разоренных» говорит об идентичности мигрантов. Основная идея романа – потери и поражения героев, отвергнутых в западном обществе за свою культурную идентичность, на пути смены своей идентичности.

Ключевые слова: культурная идентичность, литература индийской диаспоры, конфликт востока и запада, Киран Десаи, глобализация, мигранты, индийская литература.

Abstract: The article analyzes the problems of cultural identity in the East-West context. This part of a person's self-identification is determined by belonging to a social group that has its own cultural identity. In Indian literature, this theme is most raised in the literature of the diaspora, the most unusual feature of which is that its authors belong to both the West and the East. This is why they have a keen eye, capable